

ANJUMAN | КОНФЕРЕНЦИЯ | CONFERENCES

O'ZBEKISTONDA MILLIY TADQIQOTLAR:

DAVRIY ANJUMAN

DAVRIYLIGI: 2018 | 2022

ALBERT EYNSHTEYN
(1879-1955)

2022

YANVAR

№36



CONFERENCES.UZ

Toshkent shahar, Amir
Temur ko'chasi, pr.1, 2-uy.

+998 97 420 88 81

+998 94 404 00 00

www.tadqiqot.uz

www.conferences.uz



**ЎЗБЕКИСТОНДА МИЛЛИЙ
ТАДҚИҚОТЛАР: ДАВРИЙ
АНЖУМАНЛАР:
1-ҚИСМ**

**НАЦИОНАЛЬНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ
УЗБЕКИСТАНА: СЕРИЯ
КОНФЕРЕНЦИЙ:
ЧАСТЬ-1**

**NATIONAL RESEARCHES OF
UZBEKISTAN: CONFERENCES
SERIES:
PART-1**

ТОШКЕНТ-2022



УУК 001 (062)
КБК 72я43

“Ўзбекистонда миллий тадқиқотлар: Даврий анжуманлар:” [Тошкент; 2022]

“Ўзбекистонда миллий тадқиқотлар: Даврий анжуманлар:” мавзусидаги республика 36-кўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 31 январь 2022 йил. - Тошкент: «Tadqiqot», 2022. - 18 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн даврий анжуманлар Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналишлари бўйича Ҳаракатлар стратегиясида кўзда тутилган вазифа - илмий изланиш ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишланган.

Ушбу Республика илмий анжуманлари таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илғор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари таҳтил қилинган конференцияси.

Масъул муҳаррир: Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

1. Ҳуқуқий тадқиқотлар йўналиши

Профессор в.б., ю.ф.н. Юсувалиева Рахима (Жахон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

2. Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна (Фарғона давлат университети)

3. Тарих саҳифаларидаги изланишлар

Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

4. Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

5. Давлат бошқаруви

Доцент Шакирова Шохида Юсуповна (Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети)

6. Журналистика

Тошбоева Барнохон Одилжоновна (Андижон давлат университети)

7. Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар

Самигова Умида Хамидуллаевна (Тошкент вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)



8.Адабиёт

PhD Абдумажидова Дилдора Рахматуллаевна (Тошкент Молия институти)

9.Иқтисодиётда инновацияларнинг тугган ўрни

Phd Вохидова Мехри Хасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

10.Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар

Турсунназарова Эльвира Тахировна (Навоий вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)

11.Жисмоний тарбия ва спорт

Усмонова Дилфузахон Иброхимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожлантириш

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши

Бобохонов Олтибой Раҳмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

14.Тасвирий санъат ва дизайн

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

15.Муסיқа ва ҳаёт

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар

Доцент Нормирзаев Абдуқайом Раҳимбердиевич (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

17.Физика-математика фанлари ютуқлари

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманган муҳандислик-технология институти)

18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар

Т.ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

19.Фармацевтика

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

20.Ветеринария

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

21.Кимё фанлари ютуқлари

Раҳмонова Доно Қаххоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)



22. Биология ва экология соҳасидаги инновациялар

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

23. Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари

Доцент Сувонов Боймурод Ўралович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш муҳандислари институти)

24. Геология-минерология соҳасидаги инновациялар

Phd доцент Қаҳҳоров Ўктам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш муҳандислари институти)

25. География

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

Тўпламга киритилган тезислардаги маълумотларнинг ҳаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулдир.

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

PageMaker\Верстка\Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

ҲУҚУҚИЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЙЎНАЛИШИ

1. Akbarov Axadbek A'zamjon o'g'li DAVLAT SHAKLI TARKIBIY QISMLARINI HUQUQIY BAYONI.....	7
2. Курбонов Комронбек Нодиржон угли ЗАДАЧИ И СОДЕРЖАНИЕ АДМИНИСТРАТИВНОГО НАДЗОРА ЗА ОТДЕЛЬНЫМИ КАТЕГОРИЯМИ ЛИЦ, ОСВОБОЖДЁННЫМИ ИЗ УЧРЕЖДЕНИЙ ПО ИСПОЛНЕНИЮ НАКАЗАНИЙ.....	11
3. Habibullayev Dalerbek Baxtiyor o'g'li DAVLATNING TUZILISH SHAKLI TUSHUNCHASINING NAZARIY-HUQUQIY JIHATLARI VA O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING DAVLAT TUZILISH SHAKLI TO'G'RISIDAGI TURLI XIL QARASHLAR.....	14
4. Mahmudova Xurshida Abdurahmon qizi INSON HUQUQLARINI HIMOYA QILISHGA OID XALQARO HUQUQIY HUIJATLAR	16



ҲУҚУҚИЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЙЎНАЛИШИ

DAVLAT SHAKLI TARKIBIY QISMLARINI HUQUQIY BAYONI.

Akbarov Axadbek A'zamjon o'g'li,

Toshkent davlat yuridik universiteti 1- bosqich talabasi

“M.Najimov” ilmiy maktabi a'zosi

Tel: +998998932025

axadbekakbarov77@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada davlat shakllari, tarkibiy qismlari va mamlakatimiz boshqaruv shakli, tuzilishi, siyosiy rejim keng miqiyosda yoritilgan.

Kalit so'zlar: Davlat boshqaruvi shakli, davlat tuzilishi shakli, siyosiy rejim.

O'zbekiston Respublikasi 1991-yil 31-avgust mustaqillikka erishganidan so'ng o'z strategiyasi va yo'nalishlarini belgilab oldi. I.A. Karimov tashabbusi bilan O'zbekiston Respublikasi demokratik davlatga aylandi. Hokimiyat uch qismga ajratildi bular: qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatiga bo'lindi. Hozirda ko'plab muhokamalarga davlat shakllari tarkibiy qismlari sabab bo'ldi. Biz bu tarkibiy qismlarni kengroq yoritib bermoqchimiz.

Avvalo, davlat shaklini nima ekanligiga to'xtalib o'tsak. Huquqshunos olim Sh.Saydullayevning fikricha, davlat shakli davlatning mohiyati bilan bevosita bog'liqdir. Chunki davlat shakli tushunchasini o'rganish orqali davlat hokimiyati qanday uyushtirilganligi, uning qaysi idoralar orqali amalga oshirilishi, ushbu idoralarning tashkil etilish tartibi, tuzilishi, o'zaro munosabatlari, markaziy organlar bilan ma'muriy-hududiy birliklardagi mahalliy davlat organlari o'rtasidagi o'zaro munosabat, davlat hokimiyatining amalga oshirish usullari haqida ma'lumotlarga ega bo'lish mumkin[1].

Davlat shakli deganda, davlatning tuzilishi va boshqaruv usulini belgilaydigan tashqi xususiyatlari tushuniladi. Davlat shakli quyidagi uch elementni o'zida ifodalaydi:

- davlat boshqaruvi shakli;
- davlat tuzilishi shakli;
- siyosiy rejim;

Ushbu elementlar davlat qanday tashkil etilganligini va davlat hokimiyati qanday usullarda amalga oshirilishini kursatadi.

Shunday qilib, davlat shakli uch tushunchani: davlatning boshqaruv shakli, tuzilish shakli va siyosiy rejimni o'z ichiga oladi. Boshqaruv shakli davlat hokimiyati va boshqaruvi idoralarining shakllantirilishi va tashkil etilishi tartibi, ularning o'zaro hamda aholi bilan aloqadorligidir. Bu tushuncha orqali mamlakatda kim hukmron va u hokimiyatni qanday boshqaradi, degan savollarga javob olinadi. Boshqaruv shakliga qarab davlatlarning monarxiya va respublika shakllari farqlanadi. Davlat tuzilishi shakli orqali davlatning hududiy tarkibi, markaziy va mahalliy hokimiyat idoralarining o'zaro munosabati (nisbati) ifodalanadi. Tuzilish shakliga ko'ra davlatlar oddiy (unitar) va murakkab (federativ, konfederativ) turlarga ajraladilar. Siyosiy (davlat huquqiy) rejim davlat hokimiyatini amalga oshirish usullari (metodlari) va vositalari yig'indisidir. Davlat hokimiyatini amalga oshirish usul va vositalari toifasiga ko'ra demokratik va avtoritar siyosiy rejimlar farqlanadi[2].

“Davlat shaklining tarkibiy elementlari quyidagilardan iborat:

- boshqaruv shakli, ya'ni davlat hokimiyati va boshqaruvni tuzish hamda tashkil etishning muayyan tartibi;
- davlat tuzilishi shakli, ya'ni davlatning hududiy tuzilishi, markaziy, mintaqaviy va mahalliy hokimiyatlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning muayyan tartibi;
- siyosiy (davlat) rejim, ya'ni siyosiy (davlat) hokimiyatni amalga oshirish usul va uslu-



blari.

Huquqshunos olim Sh.Saydullayevning fikricha, davlat boshqaruv shakli – bu davlat hokimiyatining oliy organlarini tashkil etish hamda ushbu organlarning o‘zaro va aholi bilan bo‘lgan munosabatlarini belgilovchi davlat shaklining tarkibiy qismi. Shuningdek, muayyan mamlakatda davlat boshlig‘i (monarx yoki prezident)ning huquqiy maqomi bilan bog‘liq masalalar ham davlat boshqaruv shaklining mazmuni tarkibiga kiradi. Davlat boshqaruv shakliga ko‘ra ikkiga bo‘linadi: monarxiya va respublika.

Monarxiya (lotincha monos – yakka, arxe – hokimiyat ma’nosini anglatadi) – bunda, qoida tariqasida, oliy davlat hokimiyati yakka shaxs tomonidan amalga oshiriladi. Odatda hokimiyat meros orqali o‘tadi.

Respublika – davlat boshqaruvining shunday shakli, bunda davlat hokimiyati aholi tomonidan muayyan muddatga saylab qo‘yiladigan organlar va davlat boshlig‘i tomonidan amalga oshiriladi”[3].

Misol sifatida biz Buyuk Britaniyani keltirib o‘tmoqchimiz. Buyuk Britaniya boshqaruv shakliga ko‘ra parlamentar monarxiya hisoblanadi. Davlat boshlig‘i qirol (qirolicha). Buyuk Britaniya konstitusiyasi 1-bob 1-moddasining 1.1 bandiga ko‘ra ushbu Konstitutsiya Birlashgan Qirollikda ijro etuvchi, qonun chiqaruvchi va sud hokimiyatini amalga oshirish uchun yagona asosdir deb keltirib o‘tilgan[4]. Bundan asosiy xulosa shundaki davlat hokimiyati yagona organ qo‘lida to‘planmasligi haqida bizga qisqacha ma’lumot berib o‘tilgan.

O‘zbekiston Respublikasi konstitutsiyasining 3-moddasida keltirib o‘tilganidek: O‘zbekiston Respublikasi o‘zining milliy-davlat va ma’muriy-hududiy tuzilishini, davlat hokimiyati va boshqaruv organlarining tizimini belgilaydi, ichki va tashqi siyosatini amalga oshiradi.

O‘zbekistonning davlat chegarasi va hududi daxlsiz va bo‘linmasdir.

11-modda.

O‘zbekiston Respublikasi davlat hokimiyatining tizimi — hokimiyatning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatiga bo‘linishi prinsipiga asoslanadi.

Har bir davlatning o‘z tuzilishi shakli bor. “Huquqshunos olim Odilqoriyevning fikricha, davlatning tuzilish shakli deganda, u davlatni siyosiy, ma’muriy, hududiy tuzilishi va uni oliy organlari bilan mahalliy organlari o‘rtasidagi aloqalar nazarda tutiladi. Davlat tuzilish shakli ikkiga bo‘linadi: oddiy (unitar); murakkab (federativ va konfederativ).

Oddiy (unitar) davlat tuzilishida ma’muriy hududiy qismlarga (viloyatlar, shtatlar, okruglar, grafliklar, tumanlarga) bo‘linib, uyagona oliy organga, yagona boshqaruv organlari tizimiga, bitta Konstitutsiyaga yagona fuqarolikka, muayyan hududga, davlat chegarasiga, yagona armiyaga va qonunchilik tizimiga ega bo‘lgan davlatdir. Masalan, Fransiya, Italiya, Ukraina, Qozog‘iston kabi davlatlar unitar davlatlar hisoblanadi. Federativ davlat – teng huquqli respublikalar, shtatlar, kontonlar va boshqa davlat tuzilmalarining ixtiyoriy birlashuvidan iborat. Federativ davlat tarkibiga kiruvchi subyektlar o‘zining qonun chiqaruvchi organlariga, o‘z hukumatiga, sud organlariga ega bo‘lgan bir necha davlat tuzilmalari ittifoqidan iborat bo‘ladi. Federativ davlat belgilari quyidagilardan iborat: Birinchidan, uning hududi subyektlar hududi yig‘indisidan iborat bo‘ladi. Ikkinchidan, oliy qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyati federatsiya va subyektlar miqyosida ikki pog‘onali bo‘ladi. Federatsiya va uning subyektlarining vakolatlari federatsiya konstitutsiyasida belgilab qo‘yiladi. Uchinchidan, ikki fuqarolik mavjud bo‘lib, u har bir fuqaroning bir vaqtning o‘zida ham federativ davlat fuqarosi, ham federatsiya subyekti fuqarosi ekanligini bildiradi. Federatsiya tarkibiga kiruvchi davlatlar ixtiyoriy ravishda birlashib, markazlashgan davlatni tashkil qiladi. Federatsiyada barcha a’zolar nomidan markaziy idoralar mamlakat ichki va tashqi siyosatida yagona ish olib boradi va uning manfaatlarini himoya qiladi. Masalan, dunyoda hozirgi kunda yigirmadan ortiq federativ shakldagi davlatlar mavjud. Bular Rossiya, Braziliya, Hindiston, Germaniya, AQSH, Shveysariya, Meksika, Kanada va boshqalar.

Konfederatsiya – bir necha davlatlarning ayrim muhim sohalar, ya’ni iqtisodiy, siyosiy, mudofaa masalalari bo‘yicha tuzgan ittifoqidir. Konfederatsiyada yagona davlat hududi, yagona fuqarolik bo‘lmaydi. Konfederatsiya bu to‘la mustaqil davlatlarning ko‘ngilli ittifoqidir. Uning belgilari quyidagilardan iborat:

1) konfederatsiya muayyan maqsadlarga erishishi uchun birlashgan mustaqil davlatlarning ittifoqi;

2) barqaror bo‘lmagan siyosiy tuzilma;



- 3) yagona hududning bo‘lmasligi;
- 4) yagona fuqarolikning o‘rnatilmasligi;
- 5) konfederatsiya subyektlari undan erkin holatida chiqib ketishi mumkinligi;
- 6) konfederatsiya subyektlari qonunchilik hujjatlarini qo‘llamaslik huquqiga egaligi;
- 7) konfederatsiya vakolatiga cheklangan doiradagi masalalarni hal etish kirishi;
- 8) konfederatsiya budjeti uning a‘zolari ixtiyoriy badallaridan tashkil topishi.

Hozirgi vaqtda Yevropaning 15 ta davlatini birlashtirgan Yevropa ittifoqi davlatlarining hamdo‘stlik konfederatsiyasi mavjud. Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi konfederatsiya emas”[5].

O‘zbekiston Respublikasi konstitutsiyasining 68-moddasida keltirib o‘tilganidek: O‘zbekiston Respublikasi viloyatlar, tumanlar, shaharlar, shaharchalar, qishloqlar, ovullar, shuningdek Qoraqalpog‘iston Respublikasidan iborat.

10-modda.

O‘zbekiston xalqi nomidan faqat u saylagan Respublika Oliy Majlisi va Prezidenti ish olib borishi mumkin.

Jamiyatning biron-bir qismi, siyosiy partiya, jamoat birlashmasi, ijtimoiy harakat yoki alohida shaxs O‘zbekiston xalqi nomidan ish olib borishga haqli emas.

Endi siyosiy rejimga to‘xtaladigan bo‘lsak. “Huquqshunos olim Odilqoriyevning fikricha, siyosiy rejim – davlat hokimiyatini amalga oshirishda foydalaniladigan tartib va usullarning yig‘indisi. Siyosiy rejim tushunchasi keng va tor ma’noda qo‘llaniladi. Keng ma’nodagi yondashuvda siyosiy rejim barcha siyosiy hayot, umuman jamiyat siyosiy tizimi hodisalarining namoyon bo‘lishi va tartibi tushuniladi. Tor ma’nodagi yondashuv esa siyosiy rejimni faqat davlat hayoti, davlat hokimiyatini ro‘yobga chiqarish bilan bog‘liq hodisalar va usullar namoyon bo‘lishi tarzida talqin etadi. Har bir mamlakatda davlat hokimiyati o‘ziga xos xususiyatlarga ega, shu bois siyosiy rejim ham turlicha qaror topadi va namoyon bo‘ladi. Biroq siyosiy rejimni muayyan belgilariga ko‘ra ikki turga ajratish mumkin: avtoritar va demokratik rejimlar. Avtoritar siyosiy rejimni izohlaydigan asosiy xususiyatlar quyidagilardan iborat:

– fuqarolarning huquq va erkinliklarining cheklanganligi, bekor qilinganligi yoki umuman yo‘qligi;

– davlat hokimiyati vakillik organlari faoliyatining cheklanganligi, tugatilganligi yoki umuman taqiqlanganligi;

– davlat hokimiyati ustidan xalq nazoratining yo‘qligi, ularning yashirin usullar bilan shakllantirilishi;

– butun hokimiyatning yagona shaxs (bir organ yoki bir necha shaxs) qo‘lida to‘planganligi;

– davlat hokimiyatini amalga oshirishda ma‘muriy–buyruqbozlik, ba‘zan terrorchilik (o‘zboshimchalik, zo‘ravonlik) usullarining qo‘llanilishi;

– taraqqiyparvar siyosiy partiyalar va jamoat birlashmalari faoliyatining taqiqlanganligi, cheklanganligi yoki tarqatib yuborilganligi;

– siyosiy monizm, ya‘ni yakka mafkuraning ustunligi, uning davlat mafkurasi darajasiga ko‘tarilganligi;

– fuqarolik jamiyatining mavjud emasligi, uning institutlarining cheklanganligi, ijtimoiy manfaatlarni ifodalash imkoniyatlarining taqiqlanganligi.

Davlat va huquq nazariyasida avtoritar rejimning despotik, tiraniya, totalitar, fashistik va hokazo tarixiy turlari farqlanadi.

Demokratik siyosiy tartibda davlat fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta‘minlash, aholini turli jamoat tashkilotlariga birlashtirish, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarini xalq ishtirokida saylash, davlatni boshqarishda keng xalq ommasining ishtirok etishi ta‘minlanadi”[6].

Demokratik rejim belgilari:

1) shaxsning iqtisodiy sohada erkinligi;

2) inson va fuqaro huquqlari va erkinliklarining e‘lon qilinishi va kafolatlanishi;

3) barcha shakllardagi va tom ma‘nodagi demokratiya;

4) hokimiyat vakolatlarining bo‘linishi;

5) ijtimoiy hayotda fikrlar xilma-xilligi (plyuralizm), ijtimoiy birlashmalarning ko‘pligi;

6) qonun ustunligi.

Agar davlatda demokratik rejim hukmron bo‘lsa, demak bu davlatda fuqarolar umum e‘tirof



etilgan huquq va erkinliklardan to‘la foydalanadilar, davlat esa ularni nafaqat tan oladi, balki har tomonlama kafolatlaydi va himoya qiladi. Bunday davlatda mafkuraviy va siyosiy xilma-xillik konstitutsiya bilan mustahkamlab qo‘yiladi, siyosiy partiyalarning faoliyatiga ruxsat etiladi. Siyosiy partiyalar oliy va mahalliy hokimiyat idoralariga deputatlarni saylashda ishtirok etish orqali iloji boricha ko‘prok, a‘zolarini hokimiyat idoralariga kiritishga harakat qiladilar. Qoida tariqasida demokratik saylovda g‘alaba qilgan siyosiy partiyalar hukumatni tuzish va shu tariqa o‘z siyosatini o‘tkazish huquqiga ega bo‘ladilar[7].

Bizning fikrimizcha davlat shakli tushunchasi keng tushuncha bo‘lib olimlar o‘rtasida ko‘plab muhokamalarga sabab bo‘lgani uchun bu tushunchani kengroq yoritishga harakat qildik. Davlat shakllari o‘z ichiga davlatning boshqaruv shakli, davlatning tuzilish shakli va siyosiy rejimni o‘z ichiga oladi. Lekin ba‘zi olimlar bunga qo‘shilmaydi. Ularning fikricha davlat shakli ikki turga bo‘linadi bular: Davlat boshqaruvi, davlat tuzilishini kiritib o‘tishgan va siyosiy rejimni kiritishmagan. Davlatning boshqaruv shakliga O‘zbekistonni misol qilib oladigan bo‘lsak, O‘zbekiston prezidentlik respublikasi hisoblanadi. Hukumatni prezident tuzadi va u prezident oldida hisobot beradi. Prezident davlat boshlig‘i hisoblanadi va xalq prezidentni maxsus tartibda saylaydi. Bu davlat boshqaruvining bir shakli hisoblanadi. Davlat tuzilishiga ko‘ra davlatimiz federatsiyaning ayrim hususiyatlariga ega unitar davlat sifatida olamiz. Siyosiy rejimiga ko‘ra demokratik tartibdagi davlat hisoblanadi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak davlat shakllari davlatning hokimiyati qanday uyushtirilganligi, uning qaysi idoralar orqali amalga oshirilishi, bu idoralarning tashkil etilish tartibi, tuzilishi, o‘zaro munosabatlari haqida ma’lumotlar keltirib o‘tiladi.

Foydalangan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Saidov A., Tadjixanov U., Odilqoriyev X. Davlat va huquq asoslari: Darslik.- T.: Sharq, 2002.
2. Odilqoriyev X.T. Davlat va huquq nazariyasi. Darslik. Toshkent,2018
3. Saydullayev.Sh Davlat va huquq nazariyasi. Darslik. Toshkent: TDYU,2018
4. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi
5. The constitution of United Kingdom_1991-2014



ЗАДАЧИ И СОДЕРЖАНИЕ АДМИНИСТРАТИВНОГО НАДЗОРА ЗА ОТДЕЛЬНЫМИ КАТЕГОРИЯМИ ЛИЦ, ОСВОБОЖДЁННЫМИ ИЗ УЧРЕЖДЕНИЙ ПО ИСПОЛНЕНИЮ НАКАЗАНИЙ

Курбонов Комронбек Нодиржон угли,
курсант 3-учебного курса 326-группы
по специальности «Профилактика правонарушений»
Академия МВД Республики Узбекистан
Телефон: +998913261198
Email: kurbonovnodir2@gmail.com

Аннотация: В данной статье автором исследуется административно-правовая природа надзора за лицами, освобожденными из мест лишения свободы, определяются его задачи и пределы осуществления, рассматривается специфика объектов административного надзора.

Ключевые слова: механизм административного надзора, объект административного надзора, задачи административного надзора.

В данный период исторического развития нашего государства наблюдается большое количество совершаемых преступлений. При этом в последнее время наблюдается существенный рост количества преступлений, совершаемых лицами, отбывших наказания в учреждениях по исполнению наказаний. Существует целый комплекс мер предупреждения рецидивной преступности. Выделяют общую, специальную и индивидуальную профилактику преступлений. Недавно было признано, что применяемые меры недостаточно эффективны, и было принято решение возродить **институт административного надзора**, положительно зарекомендовавший себя в СССР.

Административный надзор в юридической литературе традиционно рассматривается в его соотношении с правоохранительной деятельностью. Органы внутренних дел занимают одно из ведущих мест в системе государственных надзорных органов, поскольку имеют свой самостоятельный объект надзора – общественный порядок и общественную безопасность. Участвуя в данных общественных отношениях в качестве субъекта функциональной власти, органы внутренних дел, к сожалению, недостаточно эффективно влияли на оперативную обстановку, не в полной мере реализовывали имеющиеся полномочия.

Все эти отрицательные факторы – рост рецидивной преступности в последнее время и отсутствие видимых результатов борьбы с этим негативным явлением – со всей очевидностью обозначили давно назревшую проблему необходимости совершенствования нормативно-правового обеспечения деятельности правоохранительных органов. В связи с этим 09 декабря 1992 года был принят Закон Республики Узбекистан «Об административном надзоре за лицами, освобожденными из учреждений по исполнению наказаний» ЗРУ-№750, но так как с развитием современного общества и либерализацией сферы профилактики правонарушений и преступлений, то что в свою очередь вызвало необходимость совершенствования данного института - 02 апреля 2019 года был принят Закон Республики Узбекистан №532 «Об административном надзоре за отдельными категориями лиц, освобожденных из учреждений по исполнению наказаний». Этот нормативный акт направлен, прежде всего, на повышение эффективности предупреждения рецидивной преступности.

Вопрос о правовой природе данного института до сих пор не является однозначно решенным в отечественной науке. В правовой теории существует позиция, согласно которой мера административного принуждения составляет одну из форм реализации уголовной ответственности. По моему мнению, у подобной точки зрения есть все основания для признания ее обоснованной.

По определению назначения административного надзора в теории права нет единого мнения. Некоторые ученые считают, что задачей административного надзора является предупреждение правонарушений. Другие полагают, что административный надзор – это



мера пресечения правонарушений. На мой взгляд, считать административный надзор мерой пресечения нет достаточных оснований, так как он не предназначен для прекращения готовящихся преступлений или иных правонарушений. Административный надзор прежде всего предназначен для предупреждения возможных преступлений в будущем. Так, например, в статье-2 Закон Республики Узбекистан №532 «Об административном надзоре за отдельными категориями лиц, освобожденных из учреждений по исполнению наказаний» четко прописано, что основной задачей административного надзора является оказание индивидуального профилактического воздействия на отдельную категорию лиц, освобожденных из учреждений по исполнению наказания, в целях предупреждения совершения ими правонарушений.

Из этого можно сделать выводы, что перед административным надзором ставятся только профилактические задачи:

- 1) наблюдение за лицами, освобожденными из мест лишения свободы;
- 2) предупреждение с их стороны новых преступлений;
- 3) оказание на них индивидуального профилактического воздействия.

Рассматривая содержание административного надзора, можно отметить, что его применение базируется на двух уникальных методах государственного и общественного воздействия – на методах убеждения и принуждения. Основным является метод убеждения, он также вытекает из содержания статье-2 Закон Республики Узбекистан №532 «Об административном надзоре за отдельными категориями лиц, освобожденных из учреждений по исполнению наказаний». Так, например, данная правовая норма закрепляет положение о том, что административный надзор устанавливается для предупреждения совершения лицами преступлений и других правонарушений, оказания на них индивидуального профилактического воздействия в целях защиты государственных и общественных интересов. Если он не достигает цели, то применяется метод государственного принуждения, т.е. на поднадзорное лицо оказывают воздействие в целях государственных и общественных интересов, а также привлекают к ответственности за нарушения административного надзора в административном порядке на основании статьи-206 Кодекса Республики Узбекистан об административной ответственности и в уголовном порядке на основании статьи-226 Уголовного кодекса Республики Узбекистан.

Исследуемый надзор имеет свои особые признаки, которые определяют его содержание. Считаем, что для более полной характеристики анализируемого надзора представляется необходимым обозначить его характерные основные признаки, которые выделяют рассматриваемый надзор среди других, придают ему качественное своеобразие и определенность. Более того, они определяют сущность административного надзора отдельными категориями лиц, освобожденных из учреждений по исполнению наказаний. Обозначим их конкретно.

1. Административный надзор за отдельными категориями лиц, освобожденных из учреждений по исполнению наказаний, является комплексом мер воспитательно-профилактического воздействия, заключающийся в применении к поднадзорным лицам устанавливаемых судом административных ограничений;

2. Рассматриваемый институт имеет обязательное нормативно-правовое закрепление. Следовательно, такой институт фиксируется законодателем в соответствующих актах и в силу этого приобретает юридический характер.

3. Он регулирует общественные отношения, складывающиеся в процессе исполнительно-распорядительной деятельности государственных органов.

4. Анализируемый надзор направлен на предупреждение преступлений и иных правонарушений в сфере правопорядка.

5. Рассматриваемый надзор заключается в применении к поднадзорным лицам устанавливаемых судом административных ограничений.

6. Данный надзор базируется в основном на административно-правовых отношениях. Такие отношения возникают помимо воли одной из сторон – освобожденных из пенитенциарного учреждения; другая же сторона – администрация учреждения по исполнению наказания – наделена властными полномочиями и действует от имени государства. Все вопросы, возникающие в процессе



этих отношений, решаются в административном и судебном порядке.

Таким образом, интеграция данных признаков позволяет сформулировать определение административного надзора. Он представляет собой систему юридических норм, регулирующих общественные отношения, складывающиеся в процессе применения к поднадзорным лицам устанавливаемых судом административных ограничений.

Список использованной литературы

1. Конституция Республики Узбекистан от 08 декабря 1992 года (в ред. 9 февраля 2021 года);
2. Кодекс Республики Узбекистан об административной ответственности от 01 апреля 1994 года (в ред. 15 января 2021 года);
3. Закон Республики Узбекистан №532 «Об административном надзоре за отдельными категориями лиц, освобожденных из учреждений по исполнению наказаний» от 2 апреля 2019 года;
4. Закон Республики Узбекистан «Об административном надзоре за лицами, освобожденными из учреждений по исполнению наказаний» ЗРУ-№750 от 9 декабря 1992 года;
5. Уголовный кодекс Республики Узбекистан от 22 сентября 1994 года (в ред. 7 декабря 2021 года);
6. Багрий-Шахматов Л.В. Уголовная ответственность и наказание. Минск: Высшая школа, 1976 г. стр.156.
7. Серегин А.В. Административная ответственность за нарушение общественного порядка. Москва, 1968 г. стр. 62.
8. Бахрах Д.Н. Советское законодательство об административной ответственности. Пермь, 1969 г. стр. 116, 149.



DAVLATNING TUZILISH SHAKLI TUSHUNCHASINING NAZARIY-HUQUQIY JIHATLARI VA O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING DAVLAT TUZILISH SHAKLI TO‘G‘RISIDAGI TURLI XIL QARASHLAR

Habibullayev Dalerbek Baxtiyor o‘g‘li

Toshkent davlat yuridik universiteti 1-bosqich talabasi.

“M.Najimov” ilmiy maktabi a‘zosi.

Telefon: +998 (90) 249 87 99

E-mail: habibullayevdalerbek@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur ilmiy maqolada davlatning tuzilish shakli tushunchasi nazariy-huquqiy jihatdan tahlil qilingan hamda O‘zbekiston Respublikasining davlat tuzilish shakli to‘g‘risidagi olimlarning turli xil qarashlari ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: davlat tuzilish shakli, unitar, federatsiya, konfederatsiya, suverenitet.

Davlatning tuzilish shakli deganda – davlat hokimiyatining ma‘muriy-hududiy tashkil etilishi, davlat bilan uni tashkil etuvchi qismlar o‘rtasidagi, davlatning alohida qismlari o‘rtasidagi, markaziy va mahalliy organlar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar xususiyatini tushunish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Davlatning tuzilish shakliga ko‘ra: **oddiy (unitar) va murakkab (federativ va konfederativ)** ko‘rinishlarda namoyon bo‘ladi.

“**Unitar davlat** – bu yagona tuzilma sifatida boshqariladigan davlat bo‘lib, unda markaziy hukumat pirovard natijada oliy hisoblanadi. Markaziy hukumat ma‘muriy bo‘linmalar yaratishi (yoki bekor qilishi) mumkin. Bunday bo‘linmalar faqat markaziy hukumat topshirish uchun tanlagan vakolatlarni amalga oshiradi.

Federativ davlat – markaziy federal hukumat (federalizm) ostida qisman o‘zini o‘zi boshqaradigan viloyatlar, shtatlar yoki boshqa mintaqalar birlashmasi bilan tavsiflangan siyosiy birlik. Federatsiyada tarkibiy shtatlarning o‘zini o‘zi boshqarish maqomi, shuningdek, ular va markaziy hukumat o‘rtasidagi hokimiyat taqsimoti odatda konstitutsiyaviy tarzda mustahkamlanadi va tomonlarning, shtatlarning yoki federal hukumatning bir tomonlama qarori bilan o‘zgartirilishi mumkin emas”[1].

Huquqshunos olim Saydullaevning fikricha: “**Davlatning tuzilish shakli** – bu davlatning siyosiy va ma‘muriy-hududiy tuzilishi bo‘lib, markaziy va mahalliy organlar o‘rtasidagi o‘zaro aloqalarni tavsiflaydigan davlat shaklining tarkibiy qismidir.”[2].

Unitar (oddiy) (lotincha “unitas” so‘zidan olingan bo‘lib – “yagona”, bir butun” degan ma‘noni anglatadi) tuzilishdagi davlat yagona bo‘lib, u tarkibiy qismlari (viloyatlar, shtatlar, okruglar, graffiklar, tumanlar) suverenitet belgilariga ega bo‘lmagan ma‘muriy-hududiy birliklardan iborat bo‘ladi.

Biz unitar davlatning belgilari sifatida quyidagilarni ko‘rsatishimiz mumkin: yagona oliy organ; yagona boshqaruv organlari tizimi; yagona konstitutsiya; yagona fuqarolik; yagona armiya; yagona pul birligi; yagona qonunchilik; yagona soliq va moliya tizimi; va hokazo. **Unitar** davlatlarga Daniya, Fransiya, Italiya, Ukraina, Norvegiya, Shvetsiya kabi odiy tarkibiy tuzilishga ega davlatlar misol bo‘la oladi.

Huquqshunos olim Odilqoriyevning fikricha: “**Unitar** davlatlarning alohida turi bo‘lib, **avtonom hududli unitar davlatlar** hisoblanadi. Ularda yagona hudud tarkibida avtonom tuzilmalar bo‘ladi.. Ularda yagona hudud tarkibida avtonom tuzilmalar bo‘ladi. Avtonom hududli unitar davlatlarga Xitoy (o‘z tarkibida bir qator avtonomiyalarga ega – Tibet, Ichki Mo‘g‘uliston, Gonkong va hokazo), Ispaniya (Basklar viloyati), Daniya (Farer orollari va Grenlandiya) misol bo‘ladi”[3]

Federativ davlat (lotincha “foederare” so‘zidan olingan bo‘lib, “ ittifoq bilan mustahkamlash” degan ma‘noni anglatadi) murakkab davlat demakdir. Federativ davlat – teng huquqli respublikalar, shtatlar, kantonlar va boshqa tuzilmalarning ixtiyoriy birlashuvi asosida tashkil topadi. Biz federativ davlatning belgilari sifatida quyidagilarni ko‘rsatishimiz mumkin: federatsiya hududi uning alohida subyektlari (shtatlar, kantonlar, respublikalar, o‘lkalar va boshqalar) hududlaridan tashkil topgan bo‘ladi; davlat hokimiyati organlari – oliy qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyati federatsiya va subyektlar miqyosida ikki pog‘onali bo‘ladi; federatsiyada ikki fuqarolik mavjud bo‘lib, u har bir fuqaroning bir vaqtning o‘zida ham federativ davlat fuqarosi, ham federatsiya subyekti fuqarosi bo‘lishini anglatadi; markaziy hukumatga bo‘ysunuvchi yagona qurolli kuchlar, politsiya, xavfsizlik xizmatlari, bojxona tizimi mavjud bo‘ladi; federativ davlat parlamenti asosan ikki palatali bo‘lib, yuqori palata asosan federatsiya subyektlarining manfaatlarini himoya qiladi, quyi palata esa butun mamlakat manfaatlarini ifoda etadi.



Federativ davlatlarga AQSh, Meksika, Braziliya, Germaniya, Rossiya kabi davlatlarni misol qilib keltirish mumkin. Biz federativ davlatlarni 3 turga bo'lishimiz mumkin: 1) **Hududiy federatsiya**; 2) **Milliy federatsiya**; 3) **Milliy-hududiy federatsiya**;

Huquqshunos olim Islomovning fikricha: “Mumtoz ma'nodagi **federativ davlatlar** pastdan – yuqoriga, kichikdan – kattaga, ko'plikdan – birlikka shaklida tipik tarzda paydo bo'lgan. Bunda federal konstitutsiyalar siyosiy jihatdan o'sib-chatishib ketadigan kichik davlatlar aynan nimalarda o'z mustaqilligini saqlab qoladi, nimalarda yo'qotishini belgilab beradi. Odatda, ularning har biri uchun alohida taalluqli bo'lgan hamda hamdo'stlik birligiga xavf solmaydigan hamma narsada mustaqillik beriladi.”[4].

Konfederatsiya–bir necha davlatlarning ayrim muhim sohalar, ya'ni iqtisodiy, siyosiy, madaniy, mudofaa kabi sohalarda muayyan maqsadlarga erishish uchun tuzadigan muvaqqat ittifoqidir. Konfederatsiyaning o'ziga xos belgilari quyidagilardan iborat: konfederatsiya muayyan maqsadlarga erishish uchun tashkil etiladi; barqaror bo'lmagan siyosiy tuzilma; yagona hududning bo'lmasligi; yagona fuqarolikning o'rnatilmasligi; konfederatsiya subyektlari undan erkin chiqib ketishi mumkinligi va hokazo. Hozirgi vaqtda Yevropaning 28 ta davlatini birlashtirgan Yevropa Ittifoqini konfederatsiyaga misol qilib ko'rsatish mumkin. Shu 28 ta mamlakatdan 19 tasida yagona pul birligi – yevro joriy etilgan. Yevropa Ittifoqini tashkil etishdan maqsad – iqtisodiyot va siyosat sohasida integratsiya bo'lishdir.

Biz bu vaziyatga huquqiy baho berishda bevosita O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga murojaat qilamiz. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasining **21-moddasi**: “O'zbekiston Respublikasining butun hududida yagona fuqarolik o'rnatiladi.

O'zbekiston Respublikasining fuqaroligi, unga qanday asoslarda ega bo'lganlikdan qat'iy nazar, hamma uchun tengdir.” **70-moddasi**da esa: “Suveren Qoraqalpog'iston Respublikasi O'zbekiston Respublikasi tarkibiga kiradi.

Qoraqalpog'iston Respublikasining suvereniteti O'zbekiston Respublikasi tomonidan muhofaza etiladi”[5].

Bizning fikrimizcha, O'zbekiston Respublikasi davlat tuzilishi shakli bo'yicha **unitar** respublikadir. Lekin uning tarkibiga suveren davlat huquqiga ega bo'lgan Qoraqalpog'iston Respublikasining kirishi federalizmning ham ayrim xususiyatlari mavjud ekanligini bildiradi. Biroq, biz O'zbekiston Respublikasini to'la asosda federativ davlat deb nomlashimiz noto'g'ri. O'zbekiston Respublikasi yagona fuqarolik o'rnatilganligi, faqat bitta umumdavlat konstitutsiyasiga egaligi, muayyan yaxlit hudud va daxlsiz davlat chegarasi mavjudligi, yagona pul birligi (so'm) joriy etilganligi, yagona armiya mavjudligi, yagona boshqaruv organlari (qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyati) tizimiga ega ekanligini asos qilib olgan holda **unitar** davlat deb atashimiz mumkin. Yuqorida federativ davlat haqida keltirilgan ma'lumotlardan kelib chiqsak, O'zbekiston Respublikasini unitar davlat ekanligiga yana bir bor amin bo'lamiz. Chunki federatsiyada davlat hokimiyati organlari – qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyati ikki pog'onali bo'ladi. O'zbekistonda esa davlat hokimiyati organlari tizimi yagonadir. Federatsiyada ikki fuqarolik bo'ladi. O'zbekistonda esa yagona fuqarolik o'rnatilgan. Shulardan kelib chiqib aytadigan bo'lsak, garchi O'zbekistonning davlat tuzilishi shaklida federalizmning ayrim xususiyatlari mavjud bo'lsada, lekin u **unitar** davlatdir. Tarkibida suveren Qoraqalpog'iston Respublikasining mavjudligini inobatga olgan holda, **avtonom hududli unitar davlat** deb aytsak bo'ladi. Chunki Qoraqalpog'iston Respublikasining suverenitetini O'zbekiston Respublikasi muhofaza etadi. Hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi istalgan vaqtda O'zbekiston Respublikasi tarkibidan ajralib chiqish huquqiga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Hanz Kelzen. General theory of law and state. – Cambridge: Harvard University Press, 2009. – 517 p.
2. Saydullayev. Sh. A. Davlat va huquq nazariyasi. Darslik – Toshkent: “Yuridik adabiyotlar publish” nashriyoti, 2021. – 248 b.
3. Odilqoriyev. X. T. Davlat va huquq nazariyasi. Darslik – Toshkent: “Adolat” nashriyoti, 2018. – 528 b.
4. Islomov. Z. M. Davlat va huquq nazariyasi. Darslik – Toshkent: “Adolat” nashriyoti, 2007. – 916 b.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi (<https://lex.uz/docs/-20596>).



INSON HUQUQLARINI HIMOYA QILISHGA OID XALQARO HUQUQIY HUJJATLAR

Mahmudova Xurshida Abdurahmon qizi
Andijon shahar 1-son kasb-hunar maktabi
Davlat va huquq asoslari fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada inson huquq va erkinliklarini himoya qilishga oid xalqaro va mamlakatimizda qabul qilingan huquqiy hujjatlar haqida, shuningdek respublikamiz fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning qonun bilan himoya qilinishi to'g'risidagi hujjatlar haqida ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: inson, huquq, jamiyat, xalqaro huquq, O'zbekiston Respublikasi, qonun, himoya, fuqaro, organ, institut, norma, shaxs.

Xalqaro hamjamiyatga kirgan O'zbekiston Respublikasi mamlakatda inson huquqlari va erkinliklarini mustahkamlashga faol yordam berish, milliy qonunlarni inson huquqlari sohasidagi xalqaro standartlarga moslashtirish majburiyatini o'ziga oldi.

Zamonaviy xalqaro hamjamiyat insonning tabiiy huquqlari g'oyasini huquqiy me'yoriy hujjatlar darajasida mustahkamlagan. Ularning ichida Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan qabul qilingan Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi alohida o'rinda turadi. Deklaratsiyada bugungi kunda har bir inson ijtimoiy hayotning barcha sohalarida ega bo'lishi lozim bo'lgan huquq va erkinliklarning minimal hajmi keltirilgan.

Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi asosida ko'plab bajarilishi shart bo'lgan hujjatlar ishlab chiqilgan. Ular Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining deyarli barcha nizomlariga aniqlik kiritishdi va ularni rivojlantirishdi hamda inson huquqlarini himoya qiluvchi ma'lum xalqaro vositalarni yaratishdi. Masalan, Fakultativ bayonnoma alohida fuqarolarga huquqlari buzilayotganligidan BMT qoshidagi maslahat organi — Inson huquqlari bo'yicha qo'mitaga shikoyat qilish imkonini berdi. Deklaratsiya, ikkita Pakt va Fakultativ bayonnoma BMTning umumiy, huquqiy qamrov darajasi bo'yicha universal hujjatlaridir va ular Inson huquqlari Xartiyasini tashkil qiladi. Ko'pincha u Inson huquqlari to'g'risida xalqaro bill deb ataladi.

Inson huquqlari va asosiy erkinliklarini himoya qilish to'g'risida Yevropa konvensiyasi (1950-y.) o'z ichiga fuqarolik hamda siyosiy, shuningdek ba'zi ijtimoiy-iqtisodiy huquqlarni olgan Konvensiyaga qo'shimcha bayonnomalari

Yevropa Kengashining yetakchi hujjatlariga aylandilar. Ularning amalga oshirilishini nazorat qilish uchun maxsus mexanizmlar - Yevropa komissiyasi va Inson huquqlari bo'yicha Yevropa sudi ta'sis etildi. Komissiya va Sud fuqarolarning huquqlari buzilishi bilan bog'liq shikoyatlarni ko'rib chiqadilar. Shikoyatning haqqoniyligi aniqlansa, Sud tomonidan har bir davlat bajarishi shart bo'lgan qaror chiqariladi.

O'zbekiston Respublikasi qonunlarida inson va fuqarolarning himoya qilinishi. Davlat mustaqilligiga erishgach, O'zbekiston inson huquqlarini himoya qilish milliy mexanizmini ham yaratib, bosqichma-bosqich mustahkamlab bormoqda.

Inson huquqlari va erkinliklarini himoyalashda davlat ichki mexanizmining asosiy bo'g'inlari quyidagilar:

— adolatli sudlovni amalga oshiradigan sud organlari;

qonunlar aniq bajarilishini nazorat qiladigan va inson erkinliklari va huquqlarini himoyalaydigan prokuratura organlari;

huquqbuzarliklarga chek qo'yilishi va inson huquqlarining himoya qilinishini ta'minlash bo'yicha majburiyatlarni bajaradigan ichki ishlar organlari.

Mamlakatda inson huquqlari bo'yicha qo'shimcha milliy muassasalar hamtashkil etilgan. Ularga:

— O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo'yicha Vakili (Ombudsman);

— Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi;

— O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Amaldagi qonun hujjatlari monitoringi instituti;



— O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo‘yicha vakili instituti kiradi.

Xorijiy fuqarolar va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar huquqlari.

Fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar — hech bir davlatning fuqarosi maqomiga ega bo‘lmagan jismoniy shaxslar (apatrid) deyiladi. Fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar to‘la huquqli fuqarolar hisoblanmasa ham, ushbu shaxslar ularni qabul qilgan mamlakatning amaldagi qonunlariga bo‘ysunishlari shart. Fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar barcha inson huquqlariga egadirlar, lekin to‘la huquqli fuqarolarning asosiy imtiyozlaridan foydalana olmaydilar.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 22-moddasida O‘zbekiston Respublikasi o‘z hududida ham, uning tashqarisida ham o‘z fuqarolarini huquqiy himoya qilishi va ularga homiylik ko‘rsatishi kafolatlangan.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 23-moddasiga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasi hududidagi chet el fuqarolarining va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarning huquq va erkinliklari xalqaro huquq normalariga muvofiqta‘minlanadi. Shu bilan birga, ular O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, qonunlari va xalqaro shartnomalari bilan belgilangan majburiyatlarini ado etadilar.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasining konstitutsiyasi.
2. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi.
3. V. A. Kostetskiy Davlat va huquq asoslari. O‘rta ta‘lim maktablarining 10-sinfi va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limi muassasalari o‘quvchilari uchun darslik.

ЎЗБЕКИСТОНДА МИЛЛИЙ ТАДКИКОТЛАР: ДАВРИЙ АНЖУМАНЛАР: 1-ҚИСМ

(1-қисм)

Масъул муҳаррир: Файзиев Шохруд Фармонович
Мусаҳҳиҳ: Файзиев Фаррух Фармонович
Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Эълон қилиш муддати: 31.01.2022

Контакт редакций научных журналов. [tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of [tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000
